

## O'Quvchilarga Axloqiy Tarbiya Berishda Hadislardan Foydalanishning Ilmiy-Pedagogik Asoslari

**Ahmedov Boburjon Vasikovich<sup>1</sup>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'quvchi hamda ijobjiy fazilatlarni rivojlantirishda shuningdek yoshlarni ahloqiy barkamol qilib tarbiyalashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad alayhissalom, Al-Buhoriy, Qur'on, Al-jome' as-sahih, sahaba, islom, ahloq, odob, tarbiya, hayo, yaxshilik, hadis, payg'ambar, Rasululloh.

O'quvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda hadis ilmini o'qitishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki o'zbek xalqining ma'naviyatini tarkib topdirishda payg'ambarimiz alayhissalomning so'zлari, odatlari, amallari, qarashlari majmui bo'lgan hadislari ko'p asrlardan beri asosiy manbaa bo'lib kelgan. Dunyodagi eng mashhur muhaddislar bizdan chiqqanligi ham tasodifiy bo'lмагan va bu hol milliy axloqimizda o'z izini qoldirgan ham. Bu hol pedagogika fani va amaliyoti tomonidan to'la anglab yetildi. Bas, shunday ekan, o'rta maktablarda hadis ilmining o'qitilishi qay ahvolda ? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Tarbiya darsligida"da hadislarning o'qitilishiga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan, ammo umumiy o'rta ta'lim maktabining "Tarbiya" dasturi va darsligining ayrim sinflarda hadislarga loaqla bir soat ham vaqt ajratilmagan.

Ko'rinib turibdiki, pedagogika fanida mavjud bo'lgan uzviylik prinsipiga bu borada yetarlicha amal qilinmagan. Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining hadislarni o'rganishlariga salbiy ta'sir qiluvchi bo'shliq hosil bo'lgan. Xo'sh, shu bo'shliqni tarbiya fanidan dars beruvchi o'qituvchilar qanday to'ldirmog'i kerak ? Tarbiya fani bo'yicha takrorlash uchun berilgan soatlardan foydalanib, har bir sinfda yiliga ikki soat "Hadis saboqlari" mavzusida mashg'ulotlar tashkil qilinmog'i maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlarda va tarbiya fani to'garaklarida hadis o'rgatilishiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ayniqsa, tarbiya darslarida turli janrlardagi badiiy matnlarni hadislар bilan qiyosiy o'rganish o'quvchilar ma'naviyatining yuksalishiga olib keladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari "Tarbiya" darslik-majmuasidan joy olgan turli janrlardagi asarlar bilan tanishadilar. Bu asarlar ichida topishmoq, maqol, hikmatli so'zlar kabi hajm jihatdan eng kichigi hadislardir. Ixchamligiga qaramay, hadislarning mazmunini to'g'ri sharhlash hamma o'quvchilarning ham qo'lidan kelavermaydi. O'quvchilar turli mavzuga oid ko'plab hadislarni bilishlari mumkin. Biroq, barcha o'quvchilar ham ularning ma'nolari ustida chuqur o'ylab ko'rismaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hadislarni ustida jiddiy ishlanmaydi.

Hadis payg'ambar Muhammad alayhissalom tomonidan aytilan pand-nasihatlar, islom dinining eng muhim axloqiy masalalari bo'yicha ko'rsatmalar, shuningdek, Rasululloh alayhissalomning safdoshlari, sahabalari (suhbatdoshlari) tomonidan aytilan Payg'ambarimiz alayhissalomning o'zi haqidagi rivoyatlardan iborat kichik hajmdagi nasriy asar hisoblanadi.<sup>2</sup>

Adabiy janr sifatida hadis deyilganda rasululloh alayhissalomning ezgu axloqi hamda oljanob siymosi aks etgan badiiy matn tushuniladi. Hadislarda axloqiy masalalarning ifodalaniishi axloqning ta'lim-tarbiyadan ajralmaganligini ko'rsatadi.

Islom olamida Qur'onidan keyingi o'rinda turuvchi hadislari ishonchli axloqiy manbaa hisoblanadi. Haqiqiyligi puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislari sahib deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining, talabalar bo'limi bosh mutaxassis

<sup>2</sup> Normatov U va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik-majmua. - T.: O'qituvchi, 2004, 22-bet.



sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarni to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Muhaddislar hadis to'plashda uni aytib bergen kishining hayotini chiqur o'rghanishgan. Toki aytib bergen kishining yolg'onsiz, rost aytganligiga ishonch hosil qilishgach, u aytgan hadis ko'chirib olingen. Bordi-yu, u shaxs unchalik ishonchli odam bo'lmasa, aytgan hadisi shubhali sanalgan. Ba'zi hadislarning aytiganidan yozib olingeniga qadar oradan ko'p vaqt o'tib ketganligi sababli haqiqiyligi shubhali hisoblangan. O'quvchilarda shunday savol tug'ilishi mumkin. Nima uchun hadislari o'z vaqtida yozib olinmagan? Bunga sabab shuki, Payg'ambarimiz alayhissalom Allohning so'zi turganda, bandasining so'zini yozib olishni o'rinsiz hisoblab ma'n qilganlar. Bu haqda Imom Buxoriy o'zining "Al jome as-sahih" asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

"Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi: "Biz hadis yozar ekanmiz, Payg'ambar alayhissalom yonimizga keldi va: "Sizlar nimani yozayapsizlar?" - deb so'radi. Bizlar: "Sendan eshitgan hadislarni", - deb javob berdik. Shunda Payg'ambar alayhissalom: "Allohning kitobi - Qur'onдан boshqa yana qanday kitob istaysiz?" - dedi".<sup>3</sup> Shul sabab sahabalar hadislarni yodda saqlab qolishga harakat qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Payg'ambar alayhissalom bilan suhbatda bo'lган va hadis rivoyat etganlar soni 1300 ga yaqin kishini tashkil qilgan. Shulardan Abu Hurayro eng ko'p hadisni yodda saqlay olgan. Biroq, vaqt o'tgani sari hadislarni yodda saqlovchilar soni kamaya borgan. Natijada, hadislarni kelgusi avlodga yetkazish muammoli masalaga aylangan. Bundan jiddiy tashvishga tushgan mashoyixlar hadislarni yod biladiganlardan yozib ola boshlagan.

Hadislarni to'plash ishlari VIII-asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingen ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to'plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd Al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilari bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, Imom Nisoiy, Imom ibn Majj Kazviniy, Abu Iso Muhammad As-Samarqandiy, Imom At-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina "Al jome' as-sahih" ("Ishonchli majmua") asari ustida o'n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to'plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, "Al-jome' as-sahih" asaridan odob-axloq mavzuiga bag'ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad ("Odob durdonalari") deb nomlangan bo'lib, bu asar 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan.<sup>4</sup> Bu hadislari mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, o'quvchilar ma'naviyatining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Islom olamida nomi mashhur hadis to'plovchi va sharhlovchilardan biri imom At-Termiziyydir. Termiziy Termiz shahri yaqinidagi Bug' qishlog'ida dunyoga kelgan. Hadis to'plash maqsadida Iraq, Hijoz kabi shaharlarda bo'lgan. Imom At-Termiziyy o'zining hadislardan iborat "Kitob al-jome as-sahih" asarini yaratdi.

Kishilarni iymon-e'tiqodli, diyonatli, halol, pok, adolatli, yaxshi xulqli va mehnatsevar qilib tarbiyalashda hadislarning o'rni beqiyosdir. Hadis musulmon xalqlarining hayotiga, turmush tarziga va adabiyotiga singib ketgan. Sharq adabiyotida shoirlar hadislarga qayta-qayta murojaat qilishgan. Hadislardan o'z asarlarida ijodiy foydalangan. Hadislarning ijobiy ta'siri ostida Abdurahmon Jomiy o'zining "Chil hadis", Alisher Navoiy esa "Arba'in" asarlarini yaratgan. Hadislarga murojaat qilish hozirgi zamon o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topgan. Bu borada Abdulla Oripov, Shukur Qurbon, Sirojiddin Sayid singari shoirlarning asarlari diqqatga sazovordir.

Hadislarning mavzu doirasi juda keng bo'lib, unda inson axloqining deyarli barcha jabhasi aks etgan. Muhaddislar odam hayotining barcha sohalarini o'z ichiga olgan haqqoniy hadislarni to'plab, bizgacha yetkazishgan va shu orqali hadislarning abadiy yashovchanligini ta'minlaganlar. Hadislari nafaqat to'planganligi, balki musulmon ahlining ma'naviyat sifatlariga aylanib ketganligi uchun ham yo'qolmaydi.

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. 2- jild.-T.: 2019.

<sup>4</sup> Uvatov U. Donolardan saboqlar. -T.:1994. 10-bet.



Hadislardan halollik, poklik, mehnatsevarlik, yurtga muhabbat, ilmga chorlash, samimiylilik, insof, adolat, o'zgalar haqiga xiyonat qilmaslik mavzulari yetakchi o'rin egalladi.

Insonlarda uchraydigan yaxshilik va yomonlik sifatlariga hadislarda juda keng o'rin berilgan. Inson hayoti boshdan oxirigacha yaxshilik va yomonlikdan iborat. Yaxshilik deyilgan tansiq tuyg'uning mohiyati qanchalik zarurligi hadislarda o'zining to'la aksini topgan: "**Yaxshilik - nafsingiz taskin topib, dilingiz orom oladigan ishdir. Yomonlik yoki gunoh esa uning aksidir, garchi muftiylar fatvo bersalar ham, o'z qalbingizga qarab ish tuting**".<sup>5</sup> Bu hadisdagi "yaxshilik", "yomonlik", "ishdir", "aksidir" so'zлari qofiyalangan nasrni, ya'ni saj'lanishni bir qadar ta'min qilgan. Ijobiy va salbiy ma'noni anglatgani uchun qarama-qarshi ma'noli bu so'zlar tazod antonimlardir. "Ishdir", "aksidir" so'zlar ma'nosining qarama-qarshiligi o'quvchilarga u qadar sezilmasa, matn quyidagi tartibda, ya'ni aniq mazmun ifodalaydigan birikmalar tarzida tahlil qilinishi mumkin: dilingiz orom oladigan ishdir - uning aksidir (dilingiz orom olmaydigan ishdir).

O'quvchilar matnning tahliliga jiddiy kirishsalar, dil oromining tan oromidan zavqli ekanligini his qila boshlaydilar. Yomonlik yoki gunoh so'zлari salbiy ma'no kasb qilsa-da, bu so'zлar ma'no jihatdan farqlanadi. Yomonlikni kishi bilib qiladi, gunohni esa bilib-bilmay qiladi. Hadisning so'nggi "o'z qalbingizga qarab ish tuting" jumlasida esa kishining ko'ngli tusaganini qilishi emas, qalbiga qulq solishi kerakligi uqtirilmoqda.

Ba'zan bitta hadisning zaminiga bir necha mazmun singdirilgan: "**Gunohning kattasi: Tangriga shirk keltirmoqlik, ota-onaga oq bo'lmoqlik**".<sup>6</sup> Ushbu hadisning tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo'lib, xudoning yagonaligini tan olishga, tinch-totuv yashashga, ota-onani e'zozlashga undaydi. O'qituvchi hadisni tahlil qilishda o'quvchilar e'tiborini "Gunohning kattasi" so'z birikmasiga qaratadi. Natijada, o'quvchilar gunohlarning ko'pligini, ammo ularning ichida kechirib bo'lmas gunohlar ham bor ekanligini anglab yetadilar. Hadisda ilgari surilgan g'oyaga yaqin matnni Navoiyning Badiuzzamonga yozgan nomasida ham uchratish mumkin: "Payg'ambar buyurubturki, Tengri taolo rizosi ota rizosiga vobasta (teng)dur va tengri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobastadur. Bas, kishi ota rizosini hosil qilsa, Tengri taolo rizosini hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabiga uchrasa, Tengri taolo g'azabiga uchramish bo'lg'ay. Munday bo'lg'ondin so'ngra kishi nechuk ota rizosin ayru dam urg'ay yo qadam qo'yg'ay. Va mashoyix so'zidirkim: "Otang parvardigoringdur", bu jihatdinkim, Tengri taolo seni yo'qdin bor qilmoqqa vasila (vositachi) uldur va tufuliyat (bolalik)dan shabob sinni (balog'at yoshi)g'acha parvarish berguvchi ul...". Tarixdan shu narsa ayonki, ota-bola o'rtasidagi nizoning bartaraf qilinib, yurt tinchligi saqlab qolinishida ushbu hadisning ta'siri katta bo'lgan. Bundan tashqari, hadisning keltirilishi nomaning badiiy ta'sir kuchini oshirgan ham.

Xalqimiz orasida "Tilga e'tibor - elga e'tibor" deyilgan ibratli hikmat keng tarqalgan. Musulmon olami tilga azaldan katta e'tibor bilan qarab kelgan. Bu mavzu hadislarda ham o'z aksini topgan: "**Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi**", "**Bu dunyoda bema'ni gaplarni ko'p gapiradigan odamning gunohi qiyomat kuni ko'p bo'lur**", "**Haqiqiy mo'minning qo'lidan ham, tilidan ham mo'minlar ozor topmaydilar**".<sup>7</sup> Bu hadislar "Avval o'yla, keyin so'yla", "Yetti o'Ichab, bir kes"kabi xalq maqollariga mazmunan yaqin bo'lib, qo'llanilgan tashbihlar, yaratilgan timsollar nuqtai nazaridan ham o'zaro bir-biriga yaqindir.

Vatanparvarlik tarbiyaning azaliy, tuganmas mavzularidan biri hisoblanadi. Insonning to'la ma'noda shakllanishi, kamol topishi, eng avvalo, ona yurt deb atalgan muqaddas tushuncha bog'ida shakllanadi. "Vatandan tashqarida, - deydi Ibrohim Haqqul, - Vatan yo'q. Mana shuning uchun inson faqat jonajon yurtida o'zini mag'rur, xotirjam his qiladi. Vatan sevgisidan yorug' e'tiqod va iymon uyg'oq. Jamiki insoniy jasoratlarning onasi - Vatan... Vatanni sevish - burch, kurash, zarur chog'da hech ikkilanmasdan jonini qurbon qilishdir."<sup>8</sup> Axloq-odobga oid hadis kitoblarini varaqlagan o'quvchi

<sup>5</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Odoblar xazinasi. Imom Al-Buxoriyning "Al-Adab Al-Mufrad" kitobining sharxi -T.: 2021 y. 1-juzi, 122-bob.

<sup>6</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. T.: 2020 y.

<sup>7</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. T.: 2015 y.

<sup>8</sup> Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida.-T.:Yulduzcha, 1989. 212-bet.



vatanparvarlik mavzusida yaratilgan hadislarga ham duch kelishadi: "**Vatanni sevmoq iymondandir**".<sup>9</sup>

Juda ko'p hadislarda rostgo'ylik, saxiylik, insof, halollik, do'stlik, pokizalik, go'zallik kabi insoniy fazilatlar targ'ib qilinadi: "**Tangri go'zaldır, go'zallıknı yaxşı ko'radi**", "**Liboslaringizni chiroylı qilinglar, ot-ulovlaringizni yaroqli tutinglar!** Yuzdagı xoldek odamlarga namuna bo'linglar!", "**Haqqıngni xoh mukammal, xoh kami bilan bo'lsa-da, halol qilib ol!**", "**Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar ham rost so'zlanglar. Shunda najot topasızlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangız ham yolg'ondan saqlaninglar**".<sup>10</sup> Bu hadislardan yoshlarni halollikka, rostgo'ylikka, hushyorlikka, tadbirkorlikka, el-yurti uchun halol mehnat qilishga da'vat qiladi.

O'quvchilar hadis ma'nolarini egallab bo'lishgach, quyidagi savol va topshiriqlar asosida olgan bilimlarini mustahkamlasalar foydali bo'ladi:

1. Hadislarning boshqa janrdagi asarlardan farqlanadigan eng muhim xususiyatlari nimalardan iborat ?
2. Hadislardan qanday ibrat oladigan jihatlarni sezdingiz ?
3. Hayotingizda hadislardan foydalanish yo'llarini izlang.
4. Halollikka, rostgo'ylikka da'vat qiluvchi hadislardan yod oling va undan mustaqil xulosa chiqaring.
5. Qaysi mavzularidagi hadislardan tanish ekaningizni aytинг.
6. O'zingizga ma'qul kelgan hadislarni ifodali o'qib, mazmunini aytib bering.
7. Hadislardan qanday taassurotlar qoldirdi ?
8. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz ?
9. Hadislarda qo'llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlang.
10. Go'zallik haqidagi hadisda insondagi qaysi jihat nazarda tutilgan ?

O'quvchilar berilgan savol-topshiriqlarni bajarishlari asnosida oldilaridagi bir qator muammolar oydinlashib, ularda quyidagi ko'nikmalar hosil bo'ladi:

- o'quvchilar masal, maqol, topishmoq janrlari kabi hadisning ham nazariy tomonlarini tushuna biladi;
- hadis talablariga amal qilish tufayli, ularning yurish-turishida ijobiy sifatlar namoyon bo'la boshlaydi;
- o'quvchilar o'zlarini o'zlashtirgan hadis talablariga rioya qila boshlaydilar;
- bolalar o'z dunyoqarashiga yaqin bo'lgan hadislarni yod olib, unga amal qila boshlaydi;
- hadis mavzularini bir-biridan farqlay boshlashadi;
- hadislarni ifodali o'qiydigan, mazmunini hikoya qiladigan, ma'nosini anglaydigan bo'lishadi;
- hadislardagi badiiy tasvir vositalarini aniqlay biladilar;

Xullas, bolalarda bilim, ko'nikma hosil bo'lib, ular ezgu ishlarga qo'l uradigan, umummanfaatiga zid bo'ladigan qusurlardan tiyiladigan, komillik sari odimlaydigan shaxs sifatida shakllana boradilar. O'quvchilarda bunday xususiyatlarni tarkib toptirishda o'qituvchiga ko'mak beruvchi asosiy vosita hadislarni puxta tahlil qilishdir.

<sup>9</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. T.: 2020 y

<sup>10</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. 2- jild.-T.: 2022 y.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh. Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz". Toshkent - "O'zbekiston"-2016.
2. Imom Ismoil Al-Buxoriy. AL-ADAB AL-MUFRAD" (Adab durdonalari) Toshkent. "O'zbekiston" – 1990.
3. Imom Ismoil Al-Buxoriy. "Al-jome' as-sahih". Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent-1997.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammmad Yusuf. "Hadis va Hayot". Hivil nashr -2019.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Oltin Silsila"-Sahihul Buxoriy. T.: 2015 y.
6. Uvatov U. Donolardan saboqlar. –T.:1994.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Odoblar xazinasi. Imom Al-Buxoriyning "Al-Adab Al-Mufrad" kitobining sharxi -T.: 2021 y. 1-juzi, 122-bob.
8. Normatov U va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik-majmua. - T.: O'qituvchi, 2004, 22-bet.
9. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida.-T.:Yulduzcha, 1989. 212-bet.

